



OLIV TA'LIM MUASSASALARI RAHBAR KADRLARINING INNOVATSION TADBIRKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODOLOGIYALARI VA KONSEPSIYALARI

Normatova Fotima Ismoilovna

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta
tayyorlash va malakasini oshirish instituti doktoranti*

Anotatsiya: O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo'jaligi, energetika, agrar, qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanishni ta'minlash va rag'batlantirish borasida katta yutuqlarga erishilmoqda va Bundan ko'zlangan asosiy maqsad: Turli sohalarda yosh olimlar safini kengaytirish, kichik tadbirkorlikni yanada faollashtirib innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Annotation: As a result of the implementation of the innovative development strategy of the Republic of Uzbekistan, economic sectors and social spheres, including agriculture, great progress is being made in terms of ensuring and stimulating innovative and technological development in energy, agriculture, construction, education, and health care and The main goal: to expand the ranks of young scientists in various fields, to increase the innovative activity of small businesses by increasing the socio-economic activity of the regions

Kalit so'zlar: innovatsion, strategiya, iqtisodiyot, ijtimoiy, energetika, agrar, ta'lim, tadbirkorlar.



Keywords: innovative, strategy, economy, social, energy, Agrarian, education, entrepreneurs.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim institutlari va talabalarning innovatsion tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi nafaqat O'zbekistonda balki xorijiy davlatlarda ham, xususan Koreya Respublikasida ham keng tatbiq etilgan amaliyotlardan hisoblanadi. Shuningdek, eng katta asosiy e'tibor oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba va yosh olimlar tomonidan olib borilayotgan loyihalarga qaratilmoqda. Universitet tomonidan yaratilayotgan texnologiya va innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishda hissasi juda yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatib turadi. Yoshlar o'rtasida Innovatsion kichik va o'rta biznes faoliyatini yo'lga qo'yish shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, 2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: Innovatsion texnologiyalari yanada rivojlantirish va ularga bo'lgan ehtiyojini yanada kengaytirishga turtki bo'ldi. Yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni oshirish yuzasidan ko'plab chora tadbirlar va turli hil o'quv qo'llanmalar yaratildi.

Mazkur o'quv qo'llanmani yaratishdan asosiy maqsad magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarini innovatsion va tadbirkorlik faoliyatning asosiy vositasi sifatida transfer g'oyasini, bilimlar va texnologiyalarni uzatish mohiyatini hamda transfer jarayonida foydalaniladigan modellar, uslublar va dastaklarni o'rgatish, bo'lajak pedagog va rahbar xodim bo'lib tayyorlanadigan magistratura talabalariga ular faoliyat olib boradigan ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida yangiliklarni izlash, uni joriy etish, amalda qo'llash, innovatsiyalarni boshqarish, innovatsion-tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish ishlarini amalga oshirishni yo'lga qo'yilgan shuningdek, texnologiyalarni tijoratlashtirish va transfer qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar



bilan yordamlashishdan iboratdir. O‘quv qo‘llanmada, zamonaviy oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining asosiy xususiyatlari va modellari, innovatsion – tadbirkor universitetlar konsepsiyasining nazariyasi va metodologiyasi, yangi O‘zbekiston sharoitida oliy ta‘lim muassasasida yoshlarga innovatsion-tadbirkorlik muhitini rivojlantirish yo‘nalishlari bayon etilgan va bosqichma bosqich yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, 2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi va shu qarorlar yuzasidan turli xil tadbirlar o‘tkazildi. Jumladan yoshlarni iqtisodiy va kichik bizneslarga tayyorlash maqsadida INNOWEEK tadbirlari o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

“INNOWEEK”dan ko‘zlangan maqsadlar:

- Davlat organlari, erkin iqtisodiy va kichik tadbirkorlik sub’ektlari, texnopark va xususiy tadbirkorlik muassasalari va shu bilan birgalikda, iqtisodiyotning real sektorlari bilan ilmiy akademik va sanoat ilmiy tadqiqotchilik muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni chet elning yetakchi sarmoyador fondlari, innovatsion markazlari va boshqa tashkilotlari ishtirokida mustahkamlash;
- O‘zbekiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarda texnologiyalar transferi jarayonini, shuningdek, iqtisodiyot va xususiy tadbirkorlikni hamda kichik biznesni real sektor korxonalarida ishlab chiqishni amalga oshirish natijalari bilan amaliy tanishib chiqishni ta‘minlash orqali ichki innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni tijoratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- Innovatsion g‘oyalarni, texnologiyalar va loyihalashda va ishlab chiqishda va joriy etishda sarmoyalarni keng jalb etish, davlat va xususiy sektorlardagi yutuq va ilm-fanni ichki va tashqi bozorlarda almashishni amalda samarali tatbiq etish;



- Sanoat korxonalarini jadal takomillashtirishga, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xususiylar tadbirkorlar va investorlar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirishga yo'naltirilgan mintaqaviy va xalqaro aloqalarni rivojlantirish;
- Xalqaro investitsion forumlar, davra suhbatlari, seminarlar, bahs-munozara lar, mahorat darslari va boshqa tadbirlarni o'tkazish;
- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsion va ixtirochilik g'oyalari, texnologiyalari va loyihalari uchun doimiy faoliyat ko'rsatadigan va to'ldirilgan axborot bankini yaratish kabi bir necha samarali usullarni qamrab oladi. Bunda islohotlarning barchasi yoshlarni ko'proq innovatsion loyihalar yaratishga va inavatsion texnologiyalar bo'yicha o'z ustida ko'proq ishlashga chorlaydi

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, Har bir ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda innovatsion tadbirkorlikni va kichik biznesni ishlab chiqarish korxonalarining rivojlantirish uchun maxsus byurolari va texnoparklar davlat byudjeti va ishlab chiqarish korxonalari tashkil qilinishi lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH (o'quv qo'llanma)

NIZAMOV A.B., RAXMATOV Sh.A

2. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INTEGRATSIYA UCHBURCHAGI" VA INNOVATSION-KORPORATIV HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A.X.Alinazarov

D.A.Qayumov

O.I.Dadamirzayev

3. <https://lex.uz/docs/-6102462>

MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA SMART TA'LIMNING O'RNI